

TURKISTON JADIDLARINING TA'LIM HAQIDAGI QARASHLARI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK AHAMIYATI

Sulaymanova Dildora Nazarovna SamDU dotsenti

Nurniyozova Zuhra Shodiyor Qizi Oriental universiteti magistranti

nurniyozovaz@gmail.com

Annotatsiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati milliy uygʻonish va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotda muhim oʻrin tutdi. Jadidlar jamiyatni yangilash, ilm-fan va ta'lim orqali rivojlanish, yosh avlod tarbiyasini isloh qilishni taraqqiyotning asosiy omili deb bildilar. Mazkur maqolada bugungi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari jadidlar ilgari surgan g'oyaviy merosning mantiqiy davomi ekani asoslanadi.

Kalit soʻzlar. Jadidchilik, milliy uygʻonish, kasbiy salohiyat, maorif, matbuot, adabiyot, ta'lim, maktab.

THE VIEWS OF THE TURKESTAN JADIDS ON EDUCATION AND THEIR MODERN PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE

Abstract. The Jadid movement, which emerged in Turkestan at the end of the 19th - beginning of the 20th centuries, played an important role in the national revival and spiritual-educational development. The Jadids considered the renewal of society, development through science and education, and reforming the upbringing of the younger generation as the main factors of progress. This article substantiates that the educational reforms being implemented in today's Uzbekistan are a logical continuation of the ideological heritage put forward by the Jadids.

Keywords: Jadidism, national awakening, professional potential, education, press, literature, education, school.

ВЗГЛЯДЫ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ НА ОБРАЗОВАНИЕ И СОВРЕМЕННОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. Движение джадидов, возникшее в Туркестане в конце XIX - начале XX веков, сыграло важную роль в национальном пробуждении и духовно-просветительском развитии. Джадиды считали обновление общества, развитие через науку и образование, реформирование воспитания молодого поколения основными факторами прогресса. В данной статье обосновывается, что образовательные реформы, осуществляемые сегодня в Узбекистане, являются логическим продолжением идеологического наследия, выдвинутого джадидами.

Ключевые слова: Джадидизм, национальное возрождение, профессиональный потенциал, образование, пресса, литература, образование, школа.

Kirish. Jadidchilik harakati vakillari tomonidan yaratilgan pedagogik qarashlar, darsliklar, publitsistik asarlar hamda badiiy-adabiy meros zamonaviy ta'limning shakllanishida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ularning qarashlarida insonparvarlik, milliylik va zamonaviylik uyg'unlashib, shaxs kamolotini ta'minlashga qaratilgan pedagogik g'oyalar ilgari surilgan. Shu bois Turkiston jadidlarining ma'naviy merosini o'rganish va uning pedagogik ahamiyatini tahlil qilish bugungi ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Qayd qilish kerakki mustamlaka sharoitida Behbudiy, Munavvar qori, Abdurauf Fitrat kabi ko'pgina millatimiz daholarining yurtning kelajagi, din va qadriyatlar, ayniqsa farzandlar ta'limi, muallim va mudarrislarining saviyasi, kasbiy salohiyati va tarbiya usullari to'g'risidagi ko'plab munozaralari o'sha davr matbuotida chop etilishi [1, 97-b] orqali ushbu masalalarni butun jamiyatning diqqat markaziga olib kelishga qilingan harakat hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya. Turkiston jadidchilik harakati va uning ma'naviy-ma'rifiy hamda pedagogik ahamiyati masalasi mahalliy va xorijiy tarixshunoslikda keng yoritilgan. Jadidchilikning vujudga kelishi, g'oyaviy asoslari va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni masalalari XX asr boshlaridayoq jadid ma'rifatparvarlarining o'z asarlari va publitsistik chiqishlarida muhim mavzu sifatida ko'tarilgan. Ismoil Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalari o'z asarlarida, Rossiya imperiyasi davrida mahalliy til va yozuvda nashrdan chiqqan "Turkiston viloyati gazetasi", "Tarjimon" kabi gazetalarda ham turkiy dunyo va mahalliy ziyolilarning ta'lim va ilmga bo'lgan chaqiruvlarida ta'limni jamiyatni isloh qilishning asosiy vositasi sifatida talqin etilgan.

Mustaqillik yillarida jadidchilik harakati masalasi tarixiy haqiqat nuqtayi nazaridan qayta baholanib, uning milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilindi. O'zbek tarixchilari va pedagog olimlari tomonidan jadidlarning ma'naviy merosi, pedagogik qarashlari, maktab-maorif sohasidagi islohotchilik faoliyati chuqur o'rganildi. Bir qancha tadqiqotchilar, xususan, J.Yo'ldoshev[2], D.Rashidova[3], B.Qosimov[4], N.Karimov[8], R.Sharipov[5] D.Alimova[3; 6] kabilarning tadqiqotlarda jadidchilik nafaqat ma'rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy hodisa sifatida talqin qilinib, uning ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi alohida ta'kidlandi.

Mazkur tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-tahliliy, tizimli yondashuv kabi metodlardan foydalanilib, tadqiqot natijalarini umumlashtirishda esa induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. O'zbek xalqining tarixining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi davri tarixan qisqa vaqtni tashkil etgan bo'lsa-da, xalqning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo'lgan davrdir. Shu davrda maydonga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqning madaniy,

ma'rifiy va ruhiy hayotini butunlay o'zgartirib yubordi.[7, 3-b] Tarixdan ma'lumki, Turkistonda jadidchilik harakati XX asrning boshlarida o'z taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarildi. Jadidchilik ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat sifatida "jadid" - "yangi"gina emas, haqiqatan "yangi tafakkur", "yangi inson", "yangi avlod" mafkurasiga aylandi.[1, 90-b]

Bu jarayonlar natijasida jamiyatning nafaqat madaniy va ma'rifiy hayoti, balki xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy tafakkuri va ruhiy-ma'naviy muhitida ham tub o'zgarishlar yuz berdi.

Jadidlarning jamiyatni yangilash nazariyasida taraqqiyot-da ancha ilgari ketgan Yevropa bilan yaqinlashish, uning eng yaxshi yutuqlarini o'zlashtirish masalasi muhim o'rin tutgan. Turkistonning mustamlaka holati tufayli yuzaga kelgan inqirozdan chiqish, avvalambor, Yevropa tajribasidan foydalanib madaniy islohotlar o'tkazishda ko'ringan. Buning uchun, birinchi navbatda, islom bilan taraqqiyotni qonuniylashtirish nazariyasini va islomning inson va jamiyatning uygun rivoji masalasiga munosabati haqida musulmon ommaga tushunarli konsepsiyani ishlab chiqish zarur edi. Jadidlar ushbu goyani adabiy va publitsistik ijod orqali amalga oshirishga harakat qildilar. Bu g'oya ularning ko'plab asarlarida ko'zga tashlanadi.[6, 79-b] Shu tariqa, jadidlar tomonidan ilgari surilgan yangilanish g'oyalari faqat nazariy mulohazalar doirasida qolib ketmadi. Ular ushbu qarashlarni amaliy hayotga joriy etish, keng jamoatchilik ongiga singdirish uchun turli vosita va shakllardan foydalandilar. Ayniqsa, maorif, matbuot va adabiyot sohalari jadid g'oyalarini tarqatishda asosiy maydonga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, jadidlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyati va uning jamiyat hayotida tutgan o'rnini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jadid marifatparvarlarining ta'lim va ilmga chaqiruvlari o'zining ahamiyatliligi va bugungi kunda ham o'zining dolzarbliligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, Ismoil Gaspirali "... ahvolni tuzatmoq, uchun uch narsa kerak: 1. Milliy fikr. 2. Milliy til. 3. Milliy maorif. Milliy fikr, birinchi navbatda, millat birligi fikridir. Til yagona adabiy til masalasidir. Milliy maorif ona tilidagi ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishdir. Fikr va tilni matbuot tarbiya qiladi. Matbuot xodimlarini yetkazuvchi esa maorifdir. Demak, ishni maorifdan boshlash kerak" ligini ta'kidlagan edi.[4, 190-b] Mahmudxo'ja Behbudiy aytadi "...Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, makotib (maktab) – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiyisini zamoncha isloh etib ko'payturmagan tashvishli taraqqiy yo'liga kirib madaniyatdan foydalanmas... "Muborizi hayot" (hayot uchun kurash) maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o'zgalarnig asiri bo'lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo'ldan berur. Ana ushbu yo'llar ila ohiri mahv va nobud bo'lub ketar. ...yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasiga va maktablarning har jihatdan intizom va akmolig'a (yetuk bo'lishiga) ahamiyat berub, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetishdururlar. Aning uchundirki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotg'a molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muaddal (teng) tutarlar.[8, 51-b]

Bundan tashqari Rossiya imperiyasi davrida mahalliy til va yozuvda nashrdan chiqqan “Turkiston viloyati gazetasi”, “Tarjimon” kabi gazetalarda ham turkiy dunyo va mahalliy ziyolilarning ta’lim va ilmga bo’lgan chaqiruvlari muhim targ’ibot vazifasini amalga oshirgan. Masalan, 1904-yil 8-iyuldagi “Turkiston viloyati gazetasi”dagi Shayx Sa’diyning maqolasidagi ilm to’g’risidagi fikrlari[9], A.Afzollayevning “Ilmning foydasi to’g’risida” gi maqolasi[10] kabilarni aytish mumkin.

Bu davrda yashab o’tgan ziyolilarning bu kabi qarashlari ma’rifatparvarlarning ta’lim masalasiga nechog’lik katta ijtimoiy va tarixiy mas’uliyat bilan yondashganini yaqqol namoyon etadi. Jadidlar nazarida maktab va ta’lim tizimini isloh etish nafaqat bilim berish vositasi, balki millatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy mustaqilligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida qaralgan. Shu bois ular yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, milliy va diniy qadriyatlarga sodiq, tafakkuri erkin shaxs sifatida tarbiyalashni jamiyat taraqqiyotining bosh sharti deb bilganlar. Bu yondashuv jadidlarning pedagogik qarashlari va amaliy faoliyatida uzviy davom ettirilgan bo’lib, ularning ta’lim sohasidagi islohotchilik tashabbuslari keyingi tarixiy jarayonlarga ham kuchli ta’sir ko’rsatgan.

Bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnomoligidagi islohotlar markazida maktab ta’limi tizimini samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish hamisha bosh maqsadlardan hisoblanmoqda. Sh.Mirziyoyevning “Yangi O’zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”[11] degan ezgu g’oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. So’nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog’i kengaytirildi.[12] Xususan, 2023-yil 28-avgustdagi videoselekt yig’ilishida Prezidentimiz “Ko’p yoshlarimiz qiziqishi va qobiliyatiga mos kasb-hunar egallashni afzal ko’rayotgani ham davr talabi. Shu bois bolalarimizga maktabdayoq kamida ikkita chet tili, kompyuter va kasb-hunarni o’rgatsak, qo’lida hunari bo’lsa, hayotda o’z o’rniga ega bo’ladi”[13], - deb alohida qayd qilgan edi. Darhaqiqat, prezidentimiz ta’kidlaganidek “Ta’lim – sohalar ichida eng dolzarbi, maktab – eng muhimi bo’lsa, o’qituvchilik kasblar orasida eng ulug’idir”[14]

Xulosa va takliflar. Turkiston jadidlarining ma’naviy-ma’rifiy va pedagogik qarashlari bugungi kun ta’lim tizimi uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Jadid ma’rifatparvarlari ilgari surgan ta’limni isloh qilish, yosh avlodni ilm-fan asosida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalash g’oyalari hozirgi zamon pedagogikasining asosiy tamoyillari bilan uyg’unlashadi. Xususan, jadidlar ta’kidlagan shaxsni har tomonlama kamol toptirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, ta’limni hayot bilan bog’lash kabi masalalar bugungi ta’lim sohasidagi islohotlarning muhim mazmunini tashkil etadi.

Jadid pedagogik qarashlarida ta’lim jarayonida ona tilining ustuvorligi, o’qituvchining jamiyatdagi mas’uliyati va kasbiy saviyasi, ta’lim mazmunining zamon talablari bilan uyg’unligi alohida o’rin egallagan. Bu jihatlar hozirgi kunda ham dolzarbligini yo’qotmagan bo’lib, bugungi pedagogika fanida ta’lim sifati, o’qituvchining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari bilan bevosita

bog‘liqdir. Jadidlarning “maktab – taraqqiyotning boshlang‘ichi” degan g‘oyasi bugungi kunda ham ta’limni jamiyat rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etish bilan hamohangdir.

Shu nuqtayi nazardan, Turkiston jadidlarining pedagogik merosini o‘rganish nafaqat tarixiy-ahloqiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan quyidagilar taklif qilinadi:

Birinchidan, Turkiston jadidlarining pedagogik va ma’naviy merosini ta’lim tizimiga tizimli joriy etish orqali iadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlarini umumta’lim va oliy ta’lim muassasalaridagi pedagogika, tarix va ma’naviyat fanlari mazmuniga kiritish orqali yosh avlodda milliy pedagogik tafakkur va tarixiy xotirani shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, Jadid pedagogik tamoyillarini zamonaviy ta’lim yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirish orqali jadidlar ilgari surgan ona tilida ta’lim, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va bilimni amaliy hayot bilan bog‘lash g‘oyalarini bugungi kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, jadidchilik merosini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy faoliyatni kuchaytirish orqali jadidlarning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta’lim islohotlari bilan qiyosiy tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlar, seminarlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni kengaytirish va ularning g‘oyaviy merosidan amaliy foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хасанов Б. Жадид матбуоти саҳифаларида Туркистонда таълим масалаларининг ёритилиши.//Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари.// Тошкент. 2016 йил 15 апрель
2. Ёўлдошев Ж., Хасанов Ж. Жадид тарбияшунослиги асослари. Тошкент. Ўқитувчи. 1994. – 85 б.
3. Д.Алимова, Д. Рашидова. Махмудходжа Бехбудий и его исторические воззрения. Тошкент, «Маънавият», 1998
4. Қосимов Б. Миллий уйрониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент, “Маънавият”, 2002. – 398 б.
5. Шарипов Р. Туркистонда жадидчилик ҳаракати тарихидан. Тошкент. Ўқитувчи. 2002
6. Алимова Д. Жадидчилик феномени. Тошкент. “Akademnashr”, 2022. – 272 б.
7. Хасанов Б., Каримов Н., Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. Тошкент. “Тошкент ислом университети” нашриёти. 2016.
8. Каримов Н. Махмудхўжа Бехбудий. Тошкент. 2010.
9. Туркестанская туземная газета. 8 июля 1904 года. № 21. С. 7

10. Туркестанская туземная газета. 4 апреля 1910 года. № 26. С.3
11. Shavkat Mirziyoyev Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag`ishlangan bayram tabrigidagi nutqidan. Ishonch gazetasi. 2019-yil 1-sentyabr № 106-soni, 2-bet
12. Yangi O‘zbekiston” gazetasi, № 175 (964), 2023-yil 29-avgust soni. 1-bet <https://iibb.uz/oz/news/prezident-shavkat-mirziyoyev-maktab-talimidagi-masalalarni-muhokama-qilish-va-ustuvor-vazifalarni-belgilab-olish-yuzasidan-yigilishi-otkazdi>
14. Jadid gazetasi. № 41, 2024-yil 4-oktyabr soni. 2-bet